

“Management” yo‘nalishi kirish imtihonlari (1-bosqich va 2-bosqich) natijalari e‘lon qilindi.

Hurmatli abituriyentlar,

2022-2023 o‘quv yili uchun

“MANAGEMENT” YO‘NALISHI KIRISH IMTIHONLARIDAN MUVAFFAQIYATLI O‘TGANINGIZ BILAN TABRIKLAYMIZ!

Ushbu rasmiy e‘longa alohida e‘tibor berishingizni so‘raymiz!

2022-yil 14-may va 13-iyulda bo‘lib o‘tgan “Management” yo‘nalishi kirish imtihonlari natijalariga ko‘ra, abituriyentlar uchta toifaga bo‘lingan:

BIRINCHI TOIFA:

Mazkur toifaga kiruvchilar Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2022-yil 2-iyuldagi 1-son bayonining 7-ilovasiga muvofiq **Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining TO‘LIQ GRANTIga** ega bo‘ladilar (<https://edu.uz/uz/news/view/4113>) va tayyorlov yili (=Birinchi kurs)ga qabul qilinadi. IELTS (kamida 5,5 ball) sertifikatini berish muddati – o‘quv yili so‘ngiga qadar. Ushbu toifada o‘qish to‘lovi mavjud emas.

IKKINCHI TOIFA:

10 va undan yuqori ball to‘plaganlar birinchi kurs (Preparatory Year)ga qabul qilinadi. Bir o‘quv yili uchun o‘qish to‘lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so‘mni tashkil qiladi. Ushbu toifaga IELTS (kamida 5,5

ball) sertifikatini berish muddati – o‘quv yili so‘ngiga qadar.

UCHINCHI TOIFA:

10 balldan kam ball to‘plaganlar belgilangan qabul chegarasidan o‘ta olmaganlari sabab kutish ro‘yxatida turibdilar va qabul kvotasi to‘lmagan taqdirda birinchi kurs (Preparatory Year)ga o‘qishga qabul qilinadi.

Abituriyentlar uchun ajoyib imkoniyat!

1-avgustgacha TO'LOV UCHUN SHARTNOMANI TO'LIQ to'lagan abiturientlar shartnoma summasidan 10% chegirmaga ega bo'ladilar.

Shartnomalarni rasmiylashtirish Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti binosida **2022-yil 18-iyul soat 09:00 dan** boshlab amalga oshiriladi.

Sentabr oyidagi kirish imtihonlari (3-bosqich) qoidalari tez orada e'lon qilinadi.

Qabul komissiyasining ishi uchun mas'ul shaxslar:

Rektor – Inoyatxodjayev Jamshid Shuxratullaevich

Dekan – Abdullayev Farhod Bahramovich

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdan tashqari shaxslarning faoliyati uchun javobgar emas.

Kerakli hujjatlar ro'yxati:

Ariza beruvchi pasportining asl nusxasi;

Ariza beruvchining ota-onasining pasport nusxasi.

Barcha savollar bo'yicha raqamlar:

71 246-80-51 / 52,

71 246 63 48

Elektron pochta: admission@polito.uz

Manzil: Kichik Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17, Olmazor tumani, Toshkent 100095, O'zbekiston